

TEMIR YO'L BOJXONA POSTLARIDA JISMONIY SHAXSLARNING QO'L YUKI VA BAGAJLARINI BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVIDAN O'TKAZISH JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

Kalimbetova Ulzada Konisbaevna

*Bojxona instituti Magistratura bosqichi tinglovchisi, Toshkent shahri,
O'zbekiston Respublikasi,*

Shukrullo Lutpullayev Kudratillayevich

*Katta o'qituvchi Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti, Toshkent shahri,
O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning temir yo'l chegara bojxona postlarida yo'lovchilarning qo'l yuki va bagajlarini bojxona nazorat va rasmiylashtiruvidan o'tkazish jarayoni hamda ushbu jarayondagi mavjud muammolar o'r ganildi va ularga asoslanib taklif va tavsiyalar berildi.

Аннотация: В данной статье изучен процесс таможенного контроля и оформления ручной клади и багажа пассажиров на железнодорожных приграничных таможенных постах Узбекистана, а также существующие проблемы в этом процессе, на их основе даны предложения и рекомендации.

Kalit so'zlar: temir yo'l chegara bojxona posti, o'tkazish punkti, xavfni boshqarish tizimi, oldindan axborot berish, "Raqamli O'zbekiston-2030", yo'lovchilar qo'l yuki va bagajlari, bojxona nazorati, bojxona tartib-taomillari.

Ключевые слова: железнодорожный пограничный таможенный пост, перевалочный пункт, система управления рисками, предварительная информация, «Цифровой Узбекистан-2030», ручная кладь и багаж пассажиров, таможенный контроль, факторы таможенных процедур.

KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki, har bir sohani yangilab, uni ishlash faoliyatini raqamlashtirish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan "Raqamli-O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada temir yo'l chegara bojxona postlarida amalga oshiriladigan tartib-taomillarni raqamlashtirish ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Strategiyaga binoan bojxona organlari temir yo'l bojxona postlarida yuk tashuvchi poezdlarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvida o'tkazish jarayoniga xavfni boshqarish tizimini qo'llagan holda bojxona protseduralarini soddalashtirishga muvaffaq bo'ldi va bu o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Lekin, shuni ta'kidlash joizki, hozirda temir yo'l chegara bojxona postlaridan harakatlanayotgan yo'lovchilarning qo'l yuki va bagajlarini bojxona nazoratidan

o'tkazish jarayonini optimallashtirish va raqamlashtirish hal etilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Bojaxona organlari tomonidan temir yo'l chegara bojaxona postlari orqali harakatlanayotgan yo'lovchilarning qo'l yuki va bagajlarini bojaxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'risidagi" Qonunida, Bojaxona Kodeksida, 2019-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojaxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 2-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan "Temir yo'l transporti yo'lovchilarining qo'l yukini, bagajini, valyutasini va valyuta boyliklarini bojaxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 3233-son yo'rqnomasida va ichki idoraviy buyruqlarda ko'rsatib o'tilgan.

912-son qarorga muvofiq temir yo'l chegara bojaxona postidan jismoniy shaxslarni o'tkazishning umumiy qoidalarida quyidagilardan iborat:

- Chegara nazorati bo'linmasining rahbari poyezd kelishidan oldin o'tkazish punktida rejim tashkil qiladi. Davlat nazorati organlari temir yo'l tarkibining kelishi va ketishi to'g'risidagi axborotni stansiya bo'yicha navbatchidan (dispatcherdan) oladi;

- Yo'lovchilar, ularning qo'l yuki va bagaji hamda poyezd brigadasi a'zolari qo'shma naryad tomonidan o'tkazish punktida, ayrim hollarda esa harakatlanish yo'nalishida nazorat tartib-taomillaridan o'tkaziladi;

- O'tkazish punktlarida yuk va yo'lovchi tashish poyezdlarini tekshirish tartibi hamda davomiyligi yuk va yo'lovchi tashish poyezdlarini nazorat qilishning hududiy temir yo'l bo'linmalarini va davlat nazorati organlarining hududiy tuzilmalari bilan kelishilgan texnologik sxema asosida belgilanadi. Ayrim hollarda, chegara yoki bojaxona nazorati bo'linmalarining buyurtmanomalari bo'yicha tarkiblarni qo'shimcha ko'rikdan o'tkazish va poyezdlarni to'xtatib turish zarurati yuzaga kelganda, poyezdnинг to'xtab turish vaqt禹 yuk va yo'lovchi tashish poyezdlarini nazorat qilish texnologik sxemaga binoan belgilangan vaqtdan ko'proqqa uzaytirilishi mumkin;

- Nazorat tartib-taomillari nihoyasiga yetgandan so'ng, chegara nazorati bo'linmasining rahbari poyezdni jo'natish masalasini davlat nazorati boshqa organlarining rahbarlari bilan kelishadi hamda temir yo'l stansiyasi ma'muriyatiga poyezdn о'tkazish punkti hududidan jo'natish uchun ruxsat beradi;

- Chegara va bojaxona nazorati nihoyasiga yetkazilgach ichki ishlar organlari xodimlariga temir yo'l tarkibini kuzatib borishni davom ettirishga, yo'lda jamoat tartibini saqlashga, yo'lovchilarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashga ruxsat etiladi.

Temir yo'l bojaxona postlarida yo'lovchilarning qo'l yuki va bagajini davlat organlari tomonidan nazoratdan o'tkazish vaqtida yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilgan holda o'rtacha 2 soat vaqt sarflanadi. Agar yo'lovchilar tomonidan

qonun buzilish holatlari bo'lsa, yo'lovchi poezdni ushlab turish, texnologik sxemada berilgan vaqtini chozgan holatda nazorat tartib-taomillari amalga oshiriladi. Bu esa bojxona organlarining ham, yo'lovchilarning ham, yo'lovchi poezd brigada a'zolarining ham vaqtining, ham xarajatlarining sarflanishiga olib keladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston respublikasining bojxona Kodeksining 206-moddasiga binaon tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilar, tashuvchilar, bojxona ishi sohasida litsenziyalarga va ruxsatnomalarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yuk, yo'lovchilar, transport vositalari to'g'risida dastlabki tarzda taqdim etilgan axborotdan foydalanililgan holda xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan. Lekin, temir yo'l chegara bojxona posti orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar to'g'risida oldindan olingen ma'lumotlarga asoslangan xavfni boshqarish tizimi joriy etilmaganligi bois, yo'lovchilarga nisbatan bojxona nazoratining soddalashtirilgan tartibi qo'llanilmaydi. Bu esa bojxona nazoratining samaradorligini pasaytiradi.

Shuningdek, temir yo'l chegara bojxona postlarida jismoniy shaxslarga nisbatan bojxona nazorati yo'lovchilar tushirilmagan holatda temir yo'l vagonlarining o'zida, bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlari esa vagondan tashqari bojxona postlarining o'zida amalga oshiriladi. Bu ham o'z navbatida bojxona nazoratiga ajratilgan vaqtning cho'zilishiga hamda bojxona rasmiylashtiruvining shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda temir yo'l bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar va ularning qo'l yuki va bagajlari to'g'risida oldindan olingen ma'lumotlarga asoslanib xavfni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarur. Bunda Amerika Qo'shma Shtatlarining temir yo'l orqali harakatlanayotgan jismoniy shaxslarga nisbatan ishlatiladigan dasturiga asoslanib, uning O'zbekiston temir yo'l o'tkazish punktlarida joriy etish masalalarini o'rganib chiqish lozim. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan ayrim muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, bojxona rasmiylashtiruviga ajratilgan vaqtini qisqartirish maqsadida temir yo'l chegara bojxona postlarida ishlaydigan xodimlarni planshet qurilmalari bilan ta'minlash ham temir yo'l chegara bojxona postlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonlarining optimallashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentabr dagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'risidagi" Qonuni
3. 2019-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori
4. Bojxona Qo'mitasining ichki idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari.